



## NODIRA AFOQOVA SHE’RIYATIDA METAFORA VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI

Usmonov Sherzod Panjiyevich,

Qarshi davlat universiteti

Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi

[ushertzod140@gmail.com](mailto:ushertzod140@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243782>

**Annotatsiya.** Badiiy ijod namunasida qo‘llanilgan so‘zlar o‘zidagi sodda nominativ funksiyani o‘zgartirgan holda yangi obraz yasashda faol ishtirok etadi. Bu orqali har bir so‘zning ichki semantik imkoniyati ochiladi: ma‘noviy ko‘lamni tashkil etuvchi turli toifadagi semalar adibning badiiy g‘oyasiga ko‘ra, o‘rni bilan ustuvor jihatni bir-biriga bo‘shatib beradi. Bu esa metaforada mavjud bo‘lgan xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Metafora – ko‘rinmas olam haqidagi ma‘lumot tashuvchi unsur bo‘lib, metaforaning she‘riyat uchun xos bo‘lgan xarakterli jihati borliq haqidagi jami qarashlar va farazlar o‘zaro implisit holatida zidlantirilishidir. Ana shunday qarshilantirish evaziga referentlararo o‘xshash va farqli jihatlar ajratib olinadi. Maqolada Nodira Afoqova she‘riyati asosida metaforalar tahlilga olindi.

**Kalit so‘zlar.** Metafora, badiiy ijod, metaforik trop, she‘riyat, semantik evrilish.

Metafora olamni badiiy idrok etishning organik [tabiiy] usulidir [1]. U yoki bu muallifning olami [she‘riy ijodi] esa uning o‘zigagina mansub bo‘lgan metaforalar orqali tushuniladi va qabul qilinadi. Masalan, N.Vilmont B.Pasternak she‘riyatiga yo‘l topmoq ilinjida uning panmetaforistikasiga [2] murojaat qiladi. Fanda bunga o‘xshash yondashuvlar nihoyatda ko‘p bo‘lib, masalan, R.O.Yakobsonning V.Mayakovskiy ijodiga metaforalar sirasi orqali murojaatini ham misol qilish mumkin. Boshqacha aytganda, metafora – har bir adib va shoirning tili, olamni ko‘ruvdagi o‘zgacha nigohi, usuli bo‘lsa, she‘riyatning o‘ziga xos “shevasi” esa aynan metaforalar asosida yuzaga chiqadi. Badiiyat uchun metafora – trop, lingvistika va boshqa kognitiv fanlar uchun esa – tafakkur hodisasi. Struktur jihatdan badiiyatdagi tropni ikki turga: metonimiya asosida yuzaga keluvchi hamda metafora asosli troplarga bo‘lish mumkin. Jumladan, metonimiya asosida yuzaga kelgan trop hajm, shakl, chiziq va hokazo unsurlardan tashkil etuvchi butunlikdan ishora beradi. Masalan, eposda keltirilgan portret yordamida inson haqidagi tasavvurga ega bo‘lamiz. Metaforik tropda esa so‘zlar ma‘nosi tegishli o‘zgarishlarga uchraydi: o‘xshashlik, muqobillik, assosiasiya sababidan yuzaga keluvchi semantik evrilish natijasida obyektlar o‘rtasida hatto bir-biriga aloqador emasdek ko‘ringan [irreal] munosabatlar o‘rnatiladi. Bunda fikrlar simmetriyasini oson ilg‘ash va tushuntirish imkoni mavjud, bundan farqli, fikrlar assimetriyasiga izoh topish birmuncha mushkullashadi.

O‘zbek she‘riyati milliy adabiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



xalqning ma'naviy olami, ichki kechinmalari va hayot haqidagi mushohadalari aks etadi. She'riyatning badiiy ifoda vositalari orqali inson ruhiy dunyosini yoritish imkoniyati kengaygan hozirgi davrda, o'zbek she'riyatining yangi qirralari ochilmoqda. Mustaqillik davridan keyingi o'zbek she'riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashib, insonning ruhiy kechinmalari falsafiy mushohadalar bilan birgalikda badiiy in'ikos topmoqda. Shoirlarning ijodiy izlanishlari orqali xalqning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy ehtiyojlari badiiy asarlarda namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillikning adabiyotga ta'sirini kuzatar ekanmiz, shoirlarning ijodiy erkinligi kengaygani, badiiy obrazlarning xilma-xillashgani va ruhiy kechinmalarni chuqur ifodalashga intilish kuchayganini ko'rishimiz mumkin. Avvalgi davrlar senzura va mafkuraviy cheklovlar sababli tasvirlanmagan insoniy kechinmalar endilikda erkin ifoda qilina boshladi. Shu sababli, zamonaviy o'zbek she'riyati avvalgi davr she'riyatidan birmuncha farq qiladi. Shoirlar insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlashga harakat qilmoqdalar. Shoirning ichki ruhiy holatini ifodalashda ramz, timsol, tashbeh, istiora va boshqa badiiy vositalar asosiy o'rinni egallaydi. Bularning barchasi she'riy ifodani yanada teranlashtiradi, ma'no qatlamlarini chuqurlashtiradi va o'quvchini mushohadaga chorlaydi.

She'riyatda ruhiy kechinma muhim o'rin egallaydi. Insonning ichki olamida kechayotgan jarayonlar, his-tuyg'ular, hayajon va shodliklar, qo'rquv va umidlar shoir ijodida yorqin aks etadi. Shoirlar bu kechinmalarni ramziy obrazlar va falsafiy umumlashmalar yordamida ifodalaydilar.

Lirik asarlarda, avvalo, gap bo'laklarining o'zgargan tartibi muhim rol o'ynaydi. Ijodkor badiiy maqsadining asl mohiyatini ifodalovchi so'zlarni oldi qo'llaydi. Odatdagi tartibda ega va uning aniqlovchilari oldi, kesim va uning izohlovchilari bo'lgan to'ldiruvchi va hol undan oldi qo'llanadi. Odatdagi tartibda payt holi egadan oldin kelishi kuzatilishi mumkin. She'riy asarlarda ham odatdagi tartibning qo'llanilishiga guvoh bo'lish mumkin, birgina gap ikki misrada taqsimlanish holatlari ko'p kuzatiladi. Shoira Nodira Afoqovanning "Javzoda yozilgan she'r" she'rida shunday holatni kuzatamiz:

Soktareda ne gaplar, ona,  
Jazavasi qanday javzoning?

Bunda hol, aniqlovchi, ot-kesim shaklida qo'llangan, gap oxirida undalmaning keltirilishi asosiy diqqatni undalmaga emas, fikr tashiyotgan bo'laklarga qaratgan. Ikkinchi misrada ega oldin, uning aniqlovchilari esa so'ng keltirilgan. "Jazava" so'zining oldinda keltirilishi ijodkorning badiiy maqsadini yetkazish uchun xizmat



qilgan.

Jannatlarga do‘ngandir yana

Eng chekkasi katta dunyoning? [3]

Alohida ma‘no tashuvchi so‘zlarning dastlabki o‘rinlarda keltirilishi lirik psixologizmning ifoda yo‘sinini yanada aniqroq belgilab beradi.

“Beshikdan qabrgacha ilm izla”, “Ilm olish har bir mo‘min va mo‘minaga ham farz-u, ham qarz”, “ Ilmni Chinda bo‘lsa ham izlanglar” va shu kabi ko‘plab hadislardan ma‘lum bo‘ladiki, inson ilm bilan sharaf topadi, ilm orqali halolni haromdan farqlaydi, ilm vositasida o‘zini, borliqni anglaydi. Muallif iymon uchun zarur bo‘lgan ikki narsa: hayo va ilmni obrazli fikrga aylantirgan, uningcha, kishida hayo va ilm bo‘lmasa, xuddi yalang‘och daraxt kabi. Mevasiz va soya solmagan daraxtning hech kimga keragi yo‘q, chunki undan na insonlar, na qushlar, na qurt-qumursqalar manfaat topadi. Muallif shu yo‘l bilan hadis mazmunida yashiringan hikmatni ochib bergan.

Yana sabrning foydasi haqida

Fasli xazon edi. Dedilar: Boqing,

Daraxt yaproqlari to‘kilar duv-duv.

Har ne ko‘rgulikka sabr etganning

Gunohlari ayni shundoq to‘kilur [4].

B.Sarimsoqov shoironing har bir she‘rida zaminiy hamda makoniy chegaralar sarhadsiz ekanligini, oddiy inson dardlari bashariyat dardlari bilan bir, oila orzulari esa butun bir Vatan orzulari bilan omuxta ekanligi ta‘kidlab shunday yozadi: “Nodira she‘rlarida kamyob bir xislat balqib turadi. Bu esa topib aytish, betakror tasvirlash va ifodalash, eng muhimi, o‘ziga xos dadillikdan iborat. Shu bois shoir asarlaridagi har bir tafsil, har bir poetik xulosa o‘zining bor bo‘y-basti, tarovati hamda o‘zigagina xosligi bilan she‘rxonni maftun etadi” [5].

She‘riy nutqda so‘z tartibining vazn yasovchi vazifasi birinchi o‘ringa chiqqanda, uning actual bo‘linishini ifodalovchi vazifasi keskin susayadi yohud deyarli yo‘q bo‘lish ehtimoli bor, ya‘ni gap bo‘laklarining o‘zaro joylashishi erkin tus kasb etadi, shuningdek, so‘z tartibining nasrga xos me‘yorlari so‘z birikmasi doirasida barham topadi.

She‘riyatda so‘z tartibi fikr ifodasining eng muhim unsurlaridan sanaladi hamda stilistik nuqtayi nazardan gapga qo‘shimcha mazmun berish, gap bo‘lagi ma‘nosini kuchaytirish yoki susaytirish vazifasini ham bajaradi. Sintaksisda gap bo‘laklari odatdagi va o‘zgargan, kontakt va distant so‘z tartiblaridan biriga rioya qiladi.

Badiiy asarga tasviriylik berish maqsadida poetic nutq figuralari deb yuritiluvchi



poetik sintaksis vositalarida keng foydalaniladi. Antik ritorikadan boshlab sintaktik figuralar deb atalayotga ritorik so‘roq, ellipsis, gradatsiya, band, anaphora, epifora, takror, antiteza kabilar badiiy poetic sintaksis birliklari hisoblanadi. O‘zbek tili badiiy poetik sintaksisi elementlari haqida fikr yuritilganda inversiya alohida o‘ringa ega. Inversiya formal nuqtayi nazardan to‘g‘ri, buning nasrga xosligi bizga ma‘lum. Inversiyaning gapdagi asosiy vazifasi badiiy matnda , ayniqsa, she‘riy adsarlarda muallif uslubiy maqsadining amalga oshishini ta‘minlash, gap tarkibidagi biror bo‘lakni alohida ajratib, ta‘kidlab ko‘satish orqali asosiy fikrning o‘quvchi tomonidan tez va oson tushunilishiga erishishdan iboratdir.

Ozmi-ko‘pmi kezdim dunyoni,  
Ozor chekdi goho bu ko‘ngil.  
Bir xasta qalb ekan topgani,  
Kimki bo‘lsa ezgulikka qul.

Ushbu Nodira Afoqova qalamiga mansub she‘rning birinchi misrasida to‘ldiruvchi kesimdan keyin kelgan, hol oldin keltirilgan bo‘lsa-da, u vergul bilan ajratilgan, ajratilgan bo‘lakka alohida e‘tibor qaratilgan. Ikkinchi misrada hol va ega kesimdan keyin keltirilgan, bu bilan kesimga urg‘u qaratilgan. Uchinchi misrada ega yana kesimdan oldin keltirilgan. Oxirgi misrada qo‘shma so‘zning tarkibi o‘zgartirilgan holatda berilgan. Ushbu misrani odatdagi tartibga aylantirsak, quyidagicha ko‘rinish hosil bo‘ladi: “Dunyoni ozmi-ko‘pmi kezdim, Goho bu ko‘ngil ozor chekdi, Kimki ezgulikka qul bo‘lsa, topgani bir xasta qalb ekan”. Nodira Afoqova o‘zining she‘rlarida so‘z tartibi bilan bog‘liq yondosh hodisalardan foydalanadi. Bu hodisalar lirik qahramon psixologizmining asliyatini tasvirlashda xizmat qiladi, chunki hislar aksi shakl ifodasiga bo‘g‘liq:

Sog‘inmadim bu kech men Sizni,  
Nolon baytlar bitmadim qasddan.  
Ishq-bu gunoh dedilar, endi  
Koshki gunoh qilmay yashasam.

Dastlabki misrada vositasiz-to‘ldiruvchi kesimdan so‘ng keltirilgan, misra oxirida keltirilishi unga nisbatan e‘tiborni oshiradi. Ikkinchi misrada hol kesimdan oldin kelgan. Uchinchi va to‘rtinchi misrada keltirilgan so‘zning takrori ma‘no ta‘kidini kuchaytirgan.

Ko‘zlarimga tiqildi sog‘inch,  
Ko‘z yosh bo‘lib so‘kildi darsim,  
Dedilarki: gunoh-yosh to‘kish..  
Men gunohni haydab yubordim.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Dastlabki, ikkinchi, uchinchi misralarda ega va kesimning o‘rni almashgan, inversiyaga uchragan. To‘rtinchi misrada gap bo‘laklarining odatdagi tartibi qo‘llangan.

Shu tun dilning qatida  
Bir tola nur qoldi bepanoh,  
Yig‘lab chiqdi darcham ostida  
Bolakay-men qilmagan gunoh.

Dastlabki misrada aniqlovchi-aniqlanmish, keying misrada kesim tartibi o‘zgargan. Uchinchi misrada aniqlovchi va aniqlanmishdan tashqari hol va kesimning tartibida o‘zgarish yuz bergan. To‘rtinchi misrada sifatlovchi va sifatlanmishning tartibi o‘zgargan, bu bilan sifatlovchida lirik qahramonning iqrori o‘z ifodasini topgan.

She’riy asarlarda poetik sintaksisning eng muhim belgisi sifatida ko‘rsatiladigan tartib alohida kategoriya sigfatida o‘rganilishni talab etadi va bu borada bir necha o‘zbek ijodkorlarining badiiy ijodida tartib muammosi o‘rganilgan. So‘z tartibiga yondosh hodisalar sifatida tahlil qilinagan takrorlar, alliteratsiya, qofiya, kabi tushunchalarni bir-biridan butunlar ajratgan holda tahlil qilish kerak emas. Badiiy adabiyotda qo‘llaniladigan har qanday hodisa boshqalariga bevosita yoki bilvosita aloqador, bog‘langan bo‘ladi, bularni bir-biridan ayri tasavvur qilish adabiyotning badiiy haqiqatiga mos kelmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арютунова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 380.
2. Афоқова Н. Бахорнинг бошланиши. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 1997. – 20-бет
3. Афоқова Н. Бизнинг эра. – Тошкент: Ijod press, 2019. – 242-бет.
4. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? [О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.] / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4
5. Саримсоқов Б. Ижод бахти, яратиш бахти. / Китобда: Афоқова Н. Кўнгил шеваил шеваси, Т.: Фан, 2006. 3-6-бетлар.